

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Цян Вэй, Сунь Лисинь	
Исследование перевода в интертекстуальной перспективе: на примере произведений	
А. Платонова	107
Н.Х.Bozorov	
O'zbek xalq ertaklarida stereotip ifodalar	119
N.A.Mamajonova	
Topishmoqlar – olam manzarasining ikkilamchi nomi sifatida	127
В.А.Гиёсова	
Классификация афазии с лингвистической точки зрения: обзор литературы	130
M.A.Abdusalilova	
Abdulla qodiriyning "mehrobdan chayon" romanida uy-ro'zg'or buyumlariga oid so'zlarning pragmatik tahlili	134
N.A.Xoshimova	
Gender nutqida diskursivlar tadqiqi	138



ABDULLA QODIRIYNING “MEHROBDAN CHAYON” ROMANIDA UY-RO'ZG'OR BUYUMLARIGA OID SO'ZLARNING PRAGMATIK TAHLILI

ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЛЕКСИКИ, СВЯЗАННОЙ С ПРЕДМЕТАМИ ДОМАШНЕГО ОБИХОДА В РОМАНЕ АБДУЛЛЫ КАДЫРИ «СКОРПИОН ИЗ АЛТАРЯ»

PRAGMATIC ANALYSIS OF HOUSEHOLD ITEM VOCABULARY IN ABDULLA QODIRIY'S NOVEL SCORPION FROM THE ALTAR

Abdualilova Mashhura Alisher qizi 

Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Abdulla Qodiriy o'zbek romanining asoschisi, milliy nasrning yangi davrini boshlanishi, adabiyotimizni zamonaviy va jahon san'ati cho'qqilariga yaqinlashtirgan, buyuk iste'dod sohibi deb, haqli ravishda aytishimiz mumkin. Qodiriyning durdona asarlaridan biri “Mehrobdan Chayon” (1929) tarixiy romani o'zbek adabiyoti tarixiga oid ilk romandir. Abdulla Qodiriyning tarixga qiziqishi uning o'z xalqining o'tmishini tushunishga intilishi, sabr-toqati, mehnatsevarligi, xalqning ozodlik va mustaqillik uchun olib borgan qahramonliklari bilan izohlanadi. 1961-yilda rus tilida nashr etilgan “Mehrobdan Chayon” romanining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, o'quvchi XX asrning 40-yillaridagi o'zbek xalqining hayoti va tarixini, o'sha davr rang-barangligini, qahramonlar xarakterini ifodalay oladi. Bu tushunchani oshirish maqsadida Abdulla Qodiriy o'z asarida o'zbek tarixi va romanlariga asoslanadi.

Аннотация

Абдулла Каххариё по праву считается основоположником узбекского романа, началом новой эпохи в национальной прозе, великим талантом, приблизившим нашу литературу к современному и мировому искусству. Одним из его выдающихся произведений является исторический роман «Скорпион из алтаря» («Mehrobdan Chayon», 1929), который считается первым романом, посвящённым истории узбекской литературы. Интерес Абдуллы Каххариё к истории объясняется его стремлением понять прошлое своего народа, его терпением, трудолюбием и героической борьбой народа за свободу и независимость. Одной из особенностей романа «Скорпион из алтаря», изданного на русском языке в 1961 году, является то, что читатель может почувствовать жизнь узбекского народа и дух времени 40-х годов XX века, яркую палитру эпохи и характеры героев. Для углубления этого понимания Абдулла Каххариё в своём произведении опирается на узбекскую историю и романские традиции.

Annotation

Abdulla Qodiriy is rightfully considered the founder of the Uzbek novel, the initiator of a new era in national prose, and a great talent who brought our literature closer to modern and world art. One of his masterpieces is the historical novel “Scorpion from the Altar” (Mehrobdan Chayon, 1929), which is regarded as the first novel related to the history of Uzbek literature. Qodiriy's interest in history is explained by his desire to understand the past of his people, his patience, diligence, and the heroic struggle of the people for freedom and independence. One of the distinctive features of Scorpion from the Altar, published in Russian in 1961, is that the reader can grasp the life of the Uzbek people in the 1940s, the colorful spirit of that era, and the characteristics of its heroes. To enhance this understanding, Abdulla Qodiriy bases his work on Uzbek history and literary traditions.

Kalit so'zlar: Pragmatika, uy-ro'zg'or buyumlari nomlari, leksik birliklar, mehrob, altar, lingvopragmatika, amaliy tarjima, so'zma-so'z tarjima, transliteratsiya, madaniy tafovut, pragmalingsvistika.

Ключевые слова: Прагматика, наименования предметов домашнего обихода, лексические единицы, михраб, алтарь, лингвопрагматика, практический перевод, дословный перевод, транслитерация, культурные различия, прагмалингвистика.

Key words: Pragmatics, names of household items, lexical units, mihrab, altar, linguopragmatics, practical translation, literal translation, transliteration, cultural differences, pragmalinguistics.

KIRISH

“Mehrobdan chayon” romanida Abdulla Qodiriy haqiqatni tarannum etuvchi yo'nalishning an'alarini sezilarli darajada boyitdi, qahramonlarning psixologik shakliga muhim hissa qo'shdi, insonning ichki dunyosini ifodalash usullarini oshirdi, ularning xarakterini o'zgarishini ko'rsatdi, qahramonlari tasvirlangan badiiy adabiyotda pragmatizm tamoyillarini qo'llab-quvvatladi.

ADABIYITLAR TAHLILI VA METODLAR

TILSHUNOSLIK

Tahlil obyekti uy-ro'zg'or buyumlari leksemalarining asarlarda qo'llanilishi va tarjimadagi xususiyatlariga oid masalalar "Mehrobdan Chayon" ("Scorpion from the Altar") asari misolida ko'rib chiqilgan. Shu o'rinda asarning Ilhomjon To'xtasinov tomonidan ilk marotaba to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tilidan ingliz tiliga bevosita tarjima qilingan va undagi uy-ro'zg'or buyumlari nomlariga oid terminlarning tarjima usullari tahlil qilib chiqiladi. Zero ilmiy ishimizning mazkur bobi asosan muayyan asarlar va ularning tarjimalarida uy-ro'zg'or buyumlari leksik birliklarining berilishi va ularning pragmatik tahliliga qaratilgan bo'lishiga qaramay, ushbu o'rinda "mehrob" va "altar" so'zlarining tarjimadagi muvofiqlik muammosiga to'xtalib o'tishni joiz deb hisobladik. "Mehrobdan chayon" asari nomining ingliz tiliga "Scorpion from the Altar" tarzida tarjima qilinishi — tilshunoslik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan juda qiziqarli holat bo'lib, bu yerda ayniqsa "mehrob" va "altar" so'zlarining o'zaro muvofiqligi va ularning pragmatik yuklamasi alohida e'tiborga loyiqdir. Dastlab bu ikkala ekvivalentning lug'aviy va semantik moslik jihatiga e'tibor qaratilsa, "mehrob" so'zi asosan islomiy ibodatxonada, imom turadigan, qibлага qaragan joyni bildiradi, u diniy marosimlar uchun muqaddas, muhtaram joy sanaladi[1,134]. "Altar" esa nasroniy madaniyatda xudoga qurbonlik keltiriladigan joy (qurbongoh) degan ma'noni bildiradi. Ko'pincha cherkov ichidagi markaziy diniy sahnada joylashgan bo'ladi[2].

Asar nomi — "Mehrobdan chayon" — bu metaforik ibora bo'lib, unda muqaddas joydan chiqqan xavf ifodalanadi. Bu og'ir ziddiyatli obraz: ya'ni, tinchlik va ezgulik ramzi bo'lgan joydan, kutilmaganda zararli jonzo — chayon chiqmoqda deb pragmatik jihatdan tahlil qilinganda ma'nodagi ziddiyat yuklamasi namoyon bo'ladi. Inglizcha "Scorpion from the Altar" tarjimasi ham xuddi shu ziddiyatli metaforani saqlab qoladi: "altar" — muqaddas, xudoga yaqin joy, "scorpion" — xavf, zahar, xiyonat, dushmanlik timsoli sifatida aks ettirilganligini ko'rish mumkin.

Tarjimada muhim muammolardan biri bu - madaniy kontekstni saqlash hisoblanadi. Tarjimon faqat matnni so'zma-so'z ekvivalentini emas, balki matn ortida yashiringan madaniy g'oyalarni, mentalitetga xos ifodalarni, konnotatsiyalarni ham ang'ay olishi va ularni boshqa tilga adekvat tarzda ko'chira olishi kerak[3,180]. Darhaqiqat, "Mehrob" — islomiy atama, "altar" esa nasroniylikdagi tushuncha. Bu yerda to'g'ridan-to'g'ri lug'aviy emas, funktsional ekvivalentlik tanlangan bo'lib, mazkur masala yuzasidan ko'pchilik tilshunos va tarjimashunoslar orasida bahslar mavjud. Ularning ayrimlari bu tarjimani xato yoki noaniq madaniy moslashtirish deb hisoblaydi. Quyida bu fikrni ilgari surgan ayrim tilshunoslarning pozitsiyasi va asoslari keltiriladi. Jumladan, tarjimashunos, filologiya fanlari nomzodi Hasanova N. "altar" so'zi nasroniy madaniyatiga xos diniy atribut bo'lib, uni mehrobg'a ekvivalent qilish madaniy kontekstni buzadi. Mehrob — faqat musulmonlarga xos ibodat joyi. Shuning uchun bu o'rinda yaqinroq atamalar, masalan, "prayer niche" yoki "mihrab" so'zlari ishlatilganida aniqroq bo'lar edi"[4,132-146] deya o'z pozitsiyasini diniy-madaniy kontekstda nomuvofiqlik yuzasidan namoyon etadi. Bundan tashqari, A. Karimov (tilshunos, tarjima nazariyotchisi) tarjimaning begonalashtiruvchi effekti sifatida "...tarjimada "altar" degan so'zni qo'llash, o'zbek kitobxonining dunyoqarashiga yaqin bo'lgan islomiy obrazni nasroniy ramz bilan almashtirishdir. Bu esa asarning ichki ma'naviy qatlamini buzadi" deya o'z e'tirozini bildirib o'tgan[5,189]. Qolaversa, asarni rus tilidan tarjima qilgan Larisa Naumova "altar" o'miga transliteratsiya yoki izohli tarjima taklifi bilan o'z fikrini ilgari surgan. Tarjimada diniy atamalarni to'liq almashtirish o'miga, asl shaklini saqlagan holda tushuntirish orqali o'quvchida o'sha diniy-estetik kayfiyatni uyg'otish maqsadga muvofiq[6] ekanini o'z maqolasida ta'kidlab o'tadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yuqoridagi bahs munozarali fikrlarni inobatga olgan holda shuni ta'kidlash kerakki, tarjimada diniy-madaniy terminlar alohida e'tibor talab etadi. Ularda nafaqat semantik, balki pragmatik, stilistik va madaniy konnotatsiyalar mavjud bo'lib, ular tarjimada to'g'ri uzatilmasa, asarning umumiy ma'naviy yukiga zarar yetkazadi. Shu nuqtai nazardan "Mehrobdan chayon" asar nomining inglizchaga "Scorpion from the Altar" deb tarjima qilinishi atrofida fikrlar, bahslar mavjud. Tarjimada mehrob so'zining "altar" bilan almashtirilishi bir qarashda badiiy kuchga ega bo'lsa-da, madaniy va diniy kontekstda ziddiyatli hisoblanadi. Quyida asar nomini tarjima qilishda o'z qarashlarimizdan kelib chiqib, tavsiya etiladigan yechimni keltirib o'tamiz. Tilshunos, filologiya fanlari nomzodi Karimova A. ta'kidlaganidek, "mehrob" — so'zini "Prayer niche" ko'rinishida tarjimada aks ettirish hato bo'lmaydi, bu holatda asl termin saqlanadi va madaniy xolislikga erishiladi, lekin poetiklik pasayib ketishi ham kuzatiladi. Shuningdek, "Imam's niche" deb ham

o'g'irish mumkin, bunda, yuqori aniqlikka erishiladi, ammo, tarjima juda texnik bo'lib, badiiylik yo'qolib ketish ehtimoli yuqori bo'ladi. Izlanishlar mobaynida "sanctuary niche" variantiga ham duch kelindi va tahlilga tortilganida "sanctuary" atamasi nasroniy konnotatsiyali ekanligi kamchilik sifatida nomuqobillik kasb etishi aniqlandi[7, 170]. Shu o'rinda, tarjimashunos Misayev Q. ning badiiy asar tarjimasiga oid qarashlariga yuzlanib o'tish o'rinlidir. Tarjimada konnotatsiya, stilistika, obrazli ifoda, milliy ruh kabi jihatlar mos kelmasa, tarjima "texnik jihatdan to'g'ri bo'lsada, badiiy asar sifatida yaroqsiz" bo'lib qolishini ta'kidlaydi. Shu sababli u tarjimonni faqat til emas, madaniyatlararo vositachi deb baholaydi[8, 260]. Agar tarjima badiiy asar uchun qilinayotgan bo'lsa, "Scorpion from the Mihrab" shakli poetik va madaniy muvozanatni saqlagan holda eng maqbul variant hisoblanadi. Ilmiy yoki diniy matnlarda esa "mihrab (a prayer niche in a mosque)" tarzida izohli yondashuv afzal. "Mehrob" so'zini tarjima qilishda madaniy kontekst muhim o'rin tutadi. "Altar" so'zi tarjimada semantik jihatdan yaqin ko'rinsa-da, pragmatik jihatdan nomuvofiq hisoblanadi. Shu sababli, tarjimada kontekst, o'quvchi ommasiga va uslubiy xususiyatlar inobatga olinib, "mihrab" yoki "prayer niche" kabi variantlardan foydalanish tarjimaning muvaffaqiyatini oshiradi deb hisoblaymiz.

Asarda pragmatik obrazlardan biri Ra'noning otasi Solih maxdum bo'lib, u kitobxonlarda katta qiziqish uyg'otadi. O'ta qurumsoq, ayniqsa qo'lida 200 tilla 2 quti sarpa bor bo'lib turib, har kuni qattiq non yeydi va oilasiga shunga yarasha muomala qiladi. Solih mahdum G.Wells ta'kidlaganidek, foyda haqidagi amerikanacha "foyda va qulaylik" g'oyasini rag'batlantiradi, uning bu fe'lining cho'qqisi Ra'noga xondan sovchi kelgach mahdumning Anvarga munosabati o'zgarib qolganligidan yaqqol sezish mumkin bo'ladi.

"Mehrobdan chayon" asaridagi ro'zg'or bilan bog'liq leksik birliklarni ingliz tilidagi muqobillari bilan qiyosiy va pragmatik tahlil qilish, adabiy va madaniy kontekstni hisobga olgan holda, muhim hisoblanadi. Uy-ro'zg'orning leksik birliklari bilan bog'liq leksik birliklar haqida gap ketganda, "Mehrobdan chayon" asarida ro'zg'orga oid atamalar ko'p uchraydi, masalan, "osh," "non," "suv," "uzum," "pichoq," "idish" va boshqalar ko'rsatilgan. Ushbu birliklar o'zbek tilida oila, an'ana va madaniyatni aks ettiradi. Mazkur birliklarning ingliz tilidagi muqobillari quyidagilar: "food," "bread," "water," "grapes," "knife," "dish," va boshqalar. O'zbek va ingliz tilidagi ro'zg'or leksik birliklarini o'zaro chog'ishtirma planda ko'rilganda, bir xil ma'noga ega bo'lsa-da, ularning ijtimoiy va madaniy konteksti bir-biridan farq qiladi. Masalan, o'zbek madaniyatida an'anaviy taomlar va ularning tayyorlanishi muhim o'rin tutadi, ingliz madaniyatida esa tez tayyorlanadigan ovqatlarga ko'proq e'tibor beriladi.

"Mehrobdan chayon" asarini, pragmatik jihatdan o'rganib, tahlil qilishimiz natijasida ularni quyidagi kontekstlarda aks etishini ko'ribchiqamiz:

1. Madaniy kontekst: "Mehrobdan chayon" asaridagi ro'zg'or birliklari o'zbek xalqining turmush tarzini, an'analarini va qadriyatlarini aks ettiradi. Ular oila va yaqin munosabatlarni mustahkamlovchi unsur sifatida xizmat qiladi.

2. Ijtimoiy-siyosiy kontekstda qo'llanilishi: O'zbek tilida ro'zg'or leksik birliklari ko'pincha mehribonlik, samimiylilik va oila qadriyatlarini aks ettirish uchun ishlatiladi. Ingliz tilidagi leksik birliklar esa ko'proq pragmatik va amaliy maqsadlarni ko'zlaydi, masalan, oziq-ovqat xarid qilish yoki ovqat tayyorlash jarayonida.

"Mehrobdan chayon" asaridagi ro'zg'or leksik birliklari va ingliz tilidagi muqobillari o'rtasida katta farqlar mavjud. O'zbek ro'zg'or madaniyati va leksik birliklar, an'anaviy qadriyatlarni aks ettirsa, ingliz tilidagi muqobillar ko'proq zamonaviy va amaliy kontekstda ishlatiladi. Ushbu tahlil, madaniy farq va leksik birliklarning qo'llanishining qanday ijtimoiy vaziyatlarda o'zgarishini ko'rsatadi.

XULOSA

Muayyan bir asarni yoki til birliklarini tahlil qilishning o'ziga hos uslublari mavjud bo'lib, tilshunos olim S. Rizayev ulardan birinchisi statistik tahlil qilish ekanini ta'kidlab o'tadi[1]. Ma'lumki, "so'nggi yillarda statistik usul turli sohalar kabi filologiyada, xususan, lingvistikada keng qo'llanmoqda va ushbu usul lingvostatistika nomini oldi. Tilshunoslikda statistik usulni qo'llash shunchaki maqsad emas, balki tilning nihoyatda murakkab tuzilishi, uning amal qilish sirlarini bilishda an'anaviy usul bilan birgalikda qo'llanadigan vositadir"[2]. Darhaqiqat, tanlangan asarni statistik jihatdan ham ochib berish asar tahlilini yana ham aniq va lo'ndaligini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Toshpulatova, S. Zamonaviy texnologiyalar va uy-ro'zg'or buyumlari leksikasi. // Til va madaniyat. – Toshkent – 2022.
2. Гафурова Л.Х. Бытовая лексика современного узбекского языка / АН УзССР. Ин-т языкознания. — Ташкент: Фан, 1991. — В134.
3. Usmanova Sh. Oltoy tillarida mushtarak maishiy leksika. "Fan" nashriyoti. Toshkent. 2010. – B.
4. Sobirova R. Uy-ro'zg'or buyumlari leksikasi mikromaydonining lingvokulturologik talqini. Fil.f.f.dok.diss. avtoreferat.Andijon.; - 2021. – 52 P.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. Toshkent – 2006. – B. 652-653.
6. Khaydarov, R. (2019). "Cultural Interactions in Uzbek and English Lexicons." International Journal of Linguistic Studies.
7. Абу Али Ибн Сина. Канон врачебной науки. – Тошкент: "Фан" Академии наук Республики Узбекистан, 1994. – 300 с.
8. Фахреддинова Д.А. Декоративно-прикладное искусство Узбекистана. – Ташкент: Издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1972. – 164 с.
9. Ismoilov I. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik nomlari. – Toshkent: Fan, 1965. – 156 b.
10. Jabborov I. O'zbeklarning an'anaviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati. – Toshkent: Sharq, 2008. – 240 b.
11. Maxmaraimova Sh. Lingvokulturologiya [matn] o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2017. – 164 b.